

**JIZZAX VILOYATI AGROQLIMIY RESURLARINING DEHQONCHILIKNI
HUDUDIY TASHKIL QILISHDAGI AHAMIYATI****Haydarova Surayyo Abdusalomovna***Jizzax davlat pedagogika universiteti dosenti***Erkinova Nilufar Komiljon qizi***Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi*

Аннотация. В данной статье рассмотрены комментарии о значении сельскохозяйственных ресурсов Джизакской области в региональной организации фермерского хозяйства.

Ключевые слова. Джизак, агроклимат, территория, земледелие, сельское хозяйство.

Abstract. This article presents comments on the importance of agricultural resources of Jizzakh region in regional organization of agriculture.

Key words. Jizzakh, agro-climate, territory, farming, agriculture.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xalq xo'jaligidagi tabiiy resurslardan foydalanishda nomutanosib jihatlarni bartaraf etish masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Bu borada birinchi navbatda inson va tabiat munosabatlarida muvozanatni muvofiq shakllantirish, xususan tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslarga inson ta'siri eng ko'p seziladigan sohalarda islohotlarni amalga shirish lozimligi ta'kidlanadi. Qadimdan yurtimizga xos xo'jalik sohasi bo'lgan dehqonchilik mamlakatimiz iqtisodiyotining va aholisining ayni vaqtda ham eng asosiy xo'jalik faoliyati sohaslaridan hisoblanadi. Bu sohani zamonaviy fan va texnika, ishlab chiqarish talablariga mos holda rivojlantirish davr talabidir.

Respublika qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi o'rinda turadi. Uning qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmidagi hissasi 60–65 %. Dehqonchilikda agrotexnikaning ilg'or usullarini qo'llash ekinlarning hosildor navlarini yaratish, navlarni muttasil yangilash va nav almashtirish, o'g'itlardan samarali foydalanish, o'simliklar himoyasi xizmatini yo'lga qo'yiish, ekin maydonlari tarkiblarini o'zgartirish tufayli yuqori natijalarga erishildi. Dehqonchilikda g'o'za maydonlari qisqartirildi, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash uchun respublikada don ekinlari maydoni ko'paytirildi va respublikaning g'alla mustaqilligi ta'minlandi. Respublika dehqonchiligida texnik ekinlari (g'o'za, tamaki, qandlavlagi), don ekinlari (bug'doy, sholi, arpa, makkajo'xori, dukkakli don ekinlari), sabzavot–kartoshka, poliz ekinlari, yem–xashak ekinlari, bog'dorchilik o'z ahamiyatiga ko'ra yetakchi o'rinlarda turadi.

Dehqonchilikni tabiiy sharoit omillari va resurslarga muvofiq rivojlantirish masalalari bilan ko'plab mutaxassislar shug'ullanishgan va sobiq Ittifoq davrida mamlakatimizda dehqonchilik sohasini hududiy tashkil etish ishlariga inson omilini

birinchi o'ringa qo'ygan holda ya'ni insonning tabiatni o'zgartira olish salohiyatiga tayangan holda yondashilgan. Bu esa o'z navbatida birmuncha salbiy oqibatlariga olib kelganligi barchamizga ayon.

Endilikda, dehqonchilikni har bir hududning o'ziga xos tabiiy sharoiti va agroiqlimiy resurslariga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish eng to'g'ri yondashuv ekanligi ta'kidlanadi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uning hududidagi mavjud tabiiy sharoit va tabiiy iqlimiy resurslar salohiyatiga bog'liq ekanligi barchaga ma'lum. Qishloq xo'jaligi O'zbekiston va shu jumladan Jizzax viloyatining asosiy ishlab chiqarish tarmoqlaridandir. Bu sohaning samaradorligi va mahsulotlarni yetishtirishdagi hududiy imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish uchun, uning hududiy imkoniyatlarini tadqiq qilish talab etiladi.

Jizzax viloyati turli tabiiy sharoit va tabiiy iqlimiy resurslarga ega hudud hisoblanadi. Viloyatning bir qismi tog' va tog' oldi hududlaridagi lalmikor donchilik va bog'dorchilikka asoslangan qadimiy dehqonchilik hududlari bilan birga XX asrning ikkinchi yarmida o'zlashtirilgan va bir necha o'n yilliklar davomida g'o'za yetishtirishga ixtisoslashtirilgan mintaqadan iborat. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash dolzarb masaladir. Viloyat agroiqlimiy resurslari hududiy tafovutlarga ega bo'lib, tuproq unumdorligi va suv ta'minoti va yer resurslarining holati ham aynan shunday hududiy omillarga tayanadi.

Jizzax viloyati qishloq xo'jaligining hududiy joylashuvi bo'yicha quyidagi xususiyatlarga ega:

Jizzax viloyatining qishloq xo'jaligi hududiy jihatdan bir-biridan ancha farq qiluvchi imkoniyatlarga ega;

Tog' va tog' oldi mintaqalarida dehqonchilikning samaradorligini ta'minlovchi imkoniyatlar keng, jumladan yangicha yo'nalishdagi dehqonchilik yo'nalishlarini shakllantirish muvaffaqiyatli natijalarga olib kelishi mumkin;

O'zlashtirilgan cho'l hududlarida dehqonchilik tarmoqlarining imkoniyatlari cheklangan;

CHo'l hududlarida dehqonchilik asosan maydonlar kattaligi hisobiga rivojlangan va hosildorlikni cheklovchi tabiiy omillar bilan muntazam kurashiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, Jizzax viloyatida dehqonchilikni samarali tarzda rivojlantirish masalalarining dolzarbligi yanada yaqqol ko'zga tashlanishini e'tirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). Журнал естественных наук, 1(1).
- 2.. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Gapparov, A., Haydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
5. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. European science review, (3-4).